

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№8

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
avgust



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
106 sahifa, avgust, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Visualdsp++ platformasida raqamli signal protsessorlarini dasturlash texnologiyasi	12
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich	
Tadbirkorlik tushunchasi: falsafiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik tahlil.....	19
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
Xorijiy davlatlar sog'liqni saqlash tizimida investitsiya loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish mexanizmi	26
Karabayev Sanjar Abdusamatovich	
Feasibility study and site optimization for small hydropower plants along the syr darya river in Uzbekistan.....	33
Karimov Mustafu Aminbayevich, Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
Agrar sohada risklarning o'zaro ta'sirchan tarzda namoyon bo'lish xususiyatlari.....	42
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Parrandachilik mahsulotlari omilli tahlil qilishda indeks usulidan foydalanish.	47
Bobomuratov Imomkul Islamovich	
O'zbekiston telekommunikatsiya sohasida raqamlashtirish jarayonlarini samarali boshqarish: "O'zbektelekom" ak misolida.....	56
Islamov Javlon Rasulovich	
Tijorat banklari amaliyotida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish yo'nalishlari.....	59
Rustamov Sunnatillo Rustamovich	
Tadbirkorlikning mamlakat yaimdagi ulushi va uning o'zgarish tamoyillari	66
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Norasmiy bandlikning yashirin iqtisodiyot shakllanishi va dinamikasiga ta'sirining nazariy va amaliy jihatlari	72
Xasanov Jaxongir Jamshidovich, Sharifxo'jayev Shavkat Oqilovich	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlarning amaliy holati va dinamikasi	80
Irgasheva Nigora Akbarovna	
Туристская мобильность стран персидского залива как устойчивый и перспективный источник въездного туризма в Узбекистан	87
Додиев Феруз; Голышева Елена Вячеславовна	
O'zbekistonda sug'urta bozori holati va o'sish sur'ati	96
Bazarov Zakir Xonqulovich	
Davlat xaridlarida narxning eng yuqori chegarasi: huquqiy mexanizm va amaliy ahamiyati	101
Mamasoliyev Abrorbek Abdug'ani o'g'li	




DAVLAT XARIDLARIDA NARXNING ENG YUQORI CHEGARASI: HUQUQIY MEXANIZM VA AMALIY AHAMIYATI

Mamasoliyev Abrorbek Abdug'ani o'g'li

Namangan davlat texnika universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: Abrorbekmamasoliyev1990@gmail.com



ORCID: 0009-0008-7772-3561

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlarini amalga oshirishda xarid predmeti narxining eng yuqori chegarasini belgilash tartibi, uning huquqiy asoslari hamda amaliy mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, bozor narxlarini aniqlash algoritmlari, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va jamoatchilik nazoratining o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: davlat xaridlari, o'rtacha bozor narxi, narx chegarasi, shaffoflik, manfaatlar to'qnashuvi, raqamli modul, jamoatchilik nazorati.

Abstract: This article examines the procedure for setting a maximum price threshold for public procurement items in Uzbekistan, including its legal basis and practical implementation. It also analyzes market price calculation algorithms, conflict of interest prevention, and the role of public oversight.

Keywords: public procurement, average market price, price ceiling, transparency, conflict of interest, digital module, public oversight.

Аннотация: В статье рассматривается порядок установления предельной цены предмета закупки в государственных закупках в Узбекистане, его правовые основания и практические механизмы. Анализируются алгоритмы определения рыночных цен, предотвращение конфликта интересов и роль общественного контроля.

Ключевые слова: государственные закупки, средняя рыночная цена, ценовой предел, прозрачность, конфликт интересов, цифровой модуль, общественный контроль.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, shuningdek, korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, davlat xaridlari tizimi ustidan nazoratni kuchaytirish hamda xarid jarayonlarining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Davlat xaridlari — budget mablag'larining eng katta qismi yo'naltiriladigan soha bo'lib, bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni ham belgilab beradi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-71-son¹ Farmoni (PF-71-son) asosida davlat xaridlarida xarid predmetining narxi va uning o'rtacha bozor qiymati o'rtasidagi tafovutga qat'iy cheklov o'rnatish belgilandi.

Ushbu qaror ijrosi doirasida Vazirlar Mahkamasining tegishli nizomi tasdiqlanib, xarid predmeti narxining eng yuqori chegarasini belgilash, narxlarni aniqlash uslublari va davlat nazorati mexanizmlari huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Maqolada ushbu normativ-huquqiy yangiliklarning mazmun-mohiyati, ularning amaliy mexanizmlari va davlat xaridlari tizimidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, bozor narxlarini aniqlashda raqamli texnologiyalardan foydalanish, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va jamoatchilik nazorati orqali samaradorlikni oshirish masalalariga ham e'tibor qaratiladi.

¹ <https://www.lex.uz/uz/docs/-7486412>



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Quyida davlat tashkilotlarida g'aznachilik va davlat xaridlari bilan bog'liq jarayonlarning samaradorligini oshirishga oid xalqaro hamda o'zbek olimlarining ilmiy fikrlari va qo'llanmalari tahlil qilinadi. Jumladan, o'zbek olimi Saydulla Rejapov[1] "G'aznachilikda davlat xaridlarini tashkil etish" maqolasida O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimida davlat xaridlarini samarali tashkil etish masalalari yoritilgan. Muallif davlat xaridlarini amalga oshirishda mavjud muammolarni tahlil qilib, ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va xulosalar beradi. Shuningdek, maqolada davlat xaridlarini nazorat qilishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ham ko'rib chiqilgan.

Charos Ro'zimurodova va N. Xaydarov[2] "O'zbekiston Respublikasi davlat xaridlarini amalga oshirishning nazorat tizimi" maqolasida davlat xaridlarining mamlakat iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyati, ularni tartibga soluvchi huquqiy-normativ hujjatlar hamda davlat xaridlari jarayonining shaffofligi va to'g'ri o'tkazilishi ustidan nazorat tizimi yoritilgan. Mualliflar davlat xaridlarining samaradorligini oshirish uchun nazorat mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydilar.

Gulshat Xojabayeva Karlibayeva[3] "Budjet tashkilotlarida davlat xaridlari mexanizmini takomillashtirish" maqolasida budjet tashkilotlarida davlat xaridlari mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Muallif davlat xaridlarini samarali tashkil etishda shaffoflik, raqamlashtirish va korrupsiyaga qarshi kurash muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, maqolada xorijiy tajriba va O'zbekistondagi mavjud amaliyot asosida davlat xaridlari tizimini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

O'zbekiston Respublikasining 24.12.2024 yildagi "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-1011-son² Qonunida 2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti parametrlari, daromad va xarajatlar tarkibi, shuningdek, budjet mablag'larining taqsimlanishi bo'yicha asosiy yo'nalishlar belgilangan. Qonun davlat moliyaviy resurslarini boshqarish va ulardan samarali foydalanish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi [4].

"O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi budjetlarining g'azna ijrosi qoidalarini"[5]da esa O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi budjetlarining g'azna ijrosi bo'yicha buxgalteriya hisobi va hisobotlarini yuritish tartibi belgilangan. Qoidalar budjet mablag'larining to'g'ri va samarali sarflanishini ta'minlash, shuningdek, moliyaviy intizomni mustahkamlashga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola metodologiyasi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimli tahlil qilishga asoslangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-71-son farmoni hamda ushbu farmon asosida qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining qarori va unga ilova qilingan nizomning mazmun-mohiyatini o'rganishni o'z ichiga oladi. Asosiy e'tibor davlat xaridlarida xarid predmeti narxining eng yuqori chegarasini belgilash tartibi, bozor narxlarini aniqlash algoritmi, raqamli axborot modullari, manfaatlar to'qnashuvi va jamoatchilik nazoratining amaliy mexanizmlariga qaratilgan. Analitik yondashuv asosida mazkur tartiblarning huquqiy, iqtisodiy va institutsional jihatlari o'rganildi, shuningdek, ilgari amal qilgan tartiblar bilan taqqoslash asosida yangi mexanizmning ustunliklari va kutilayotgan natijalari baholandi. Metodologiyada, shuningdek, davlat buyurtmachilarining majburiyatlari, o'rtacha bozor narxini shakllantirishda qo'llaniladigan formulalar va axborot manbalarining ishonchlilik darajasi asosiy tahlil obyekti sifatida ko'rib chiqildi. Shu tariqa, maqola huquqiy tahlil, muqobil manbalar bilan solishtirish va davlat boshqaruvidagi samaradorlikni baholash yondashuvlariga tayangan holda tayyorlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlarini amalga oshirishda xarid predmeti narxining eng yuqori chegarasini belgilashga doir tartibning huquqiy asoslari, iqtisodiy samaradorligi va amaliy mexanizmlarini ochib beradi. Eng muhim natijalardan biri sifatida, davlat buyurtmachilari xarid qilinayotgan tovar (ish, xizmat)lar bo'yicha bozor narxlarining o'rtacha qiymatini aniqlashda endilikda aniq mezon va algoritmlarga tayangan holda ish yuritishi belgilab qo'yildi. Bunda xarid predmetining boshlang'ich narxi (BN) bilan uning o'rtacha bozor narxi (O'TNarx) o'rtasidagi tafovut eng ko'pi 20 foiz etib belgilangan.

Agar tafovut 10–20 foiz oralig'ida bo'lsa, xarid faqat "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi"ning uch kun ichida beriladigan ijobiy xulosasi asosida amalga oshirilishi mumkin. Bu esa nazorat mexanizmlarini kuchaytirish orqali narxlarning sun'iy ravishda oshirilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Shuningdek, o'rtacha bozor narxini hisoblashda foydalaniladigan o'rtacha tortilgan narx (O'TNarx) quyidagi formula asosida aniqlanadi:

2 <https://www.lex.uz/uz/docs/-7277618>



$$O'TNarx = \frac{(X_1 \times Y_1) + (X_2 \times Y_2) + \dots + (X_n \times Y_n)}{X_1 + X_2 + \dots + X_n}$$

Bu yerda:

$X_1, X_2, \dots, X_n$ – tovar (ish, xizmat)larning har bir manba bo'yicha narxlari;

$Y_1, Y_2, \dots, Y_n$ – shu narxlar asosida taklif etilgan hajmlar.

Shundan so'ng narxlarning o'zgarish koeffitsiyenti hisoblanadi. Bu koeffitsiyent 30 foizdan oshmasa, o'rganilgan narxlar asosida o'rtacha bozor narxi shakllantirilgan deb hisoblanadi. Ushbu koeffitsiyent quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$\text{Narxlarning o'zgarish koeffitsiyenti} = \frac{\text{O'rtacha kvadratik og'ish}}{\text{O'rtacha tortilgan narx}} \times 100$$

Bu yerda:

O'rtacha kvadratik og'ish (σ) quyidagicha hisoblanadi:

$$\sigma = \sqrt{\frac{(N_1 - O'TNarx)^2 + (N_2 - O'TNarx)^2 + \dots + (N_n - O'TNarx)^2}{n - 1}}$$

N – har bir manba bo'yicha aniqlangan narxlar.

Boshlang'ich narx (BN) esa quyidagicha hisoblanadi:

$$BN = (O'TNarx \times v) \times (1 + t)$$

Bu yerda:

v – xarid qilinadigan tovar (ish, xizmat) miqdori;

t – ruxsat etilgan maksimal tafovut (foizda), bu holatda 0.20 (yoki 20%).

Ushbu hisob-kitoblarning elektron shaklda narxlar moduli orqali yuritilishi ham joriy etilgan. Narxlar moduli orqali kamida ikkita manbadan kamida uchta ma'lumot olingan taqdirda, o'rtacha bozor narxi shakllantirilgan hisoblanadi. Agar bu talabga javob berilmasa, davlat buyurtmachisi boshqa ishonchli manbalar (ekspertiza, tijorat takliflari, birja ma'lumotlari)dan foydalanadi.

Shuningdek, narxlar modulida quyidagilarni amalga oshirish imkoniyati mavjud:

- davlat xaridlarining tarixiy narxlari bazasini yuritish;
- AI (sun'iy intellekt) asosida narxlarning tavsiya etilgan diapazonini hisoblash;
- tijorat takliflarini elektron tarzda yig'ish va tahlil qilish;
- shubhali narxlarga "ogohlantirish" berish orqali jamoatchilik nazorati mexanizmini ishga tushirish.

Bu natijalar davlat xaridlarini iqtisodiy jihatdan asoslash, mablag'larning talon-toroj qilinishining oldini olish va tizimga axborot texnologiyalarini joriy etish orqali yanada shaffof hamda ishonchli xarid muhitini yaratishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlarida xarid predmeti narxining eng yuqori chegarasini belgilash bo'yicha joriy etilgan yangi tartib davlat moliyaviy mablag'laridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash, shuningdek, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan muhim qadam hisoblanadi. Ushbu mexanizm asosida xarid qilinayotgan tovar, ish yoki xizmatlarning o'rtacha bozor narxlarini aniq va ishonchli manbalar asosida aniqlash, ularni raqamli axborot tizimi orqali tasdiqlash va faqat belgilangan chegaralar doirasida xaridni amalga oshirish majburiyati belgilab qo'yilgan. Bu orqali narxlarning sun'iy oshirilishining oldini olish, manfaatlar to'qnashuvi holatlariga chek qo'yish va xarid jarayonida ochiqlikni ta'minlash imkoniyati yaratilmoqda. Ayniqsa, narxlar o'zgarishi koeffitsiyentiga asoslangan ilmiy yondashuv, ekspertizalarning majburiyigi va jamoatchilik nazorati elementlarining kiritilishi davlat xaridlarini boshqarishda zamonaviy va ishonchli mexanizm shakllanishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tartib nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki davlat sektorida mas'uliyat, shaffoflik va qonuniylik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois, bu mexanizmni to'liq amalga oshirish va ijrosini doimiy nazorat ostida olib borish davlat moliyaviy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mavjud tartibni amaliyotda yanada takomillashtirish va kuchaytirish maqsadida quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

Elektron xaridlar jarayonida shartnomalar bo'yicha moliyalashtirish kechikkan yoki hisob-fakturalar tasdiqlanmagan hollarda, maxsus axborot portali operatoriga shartnomani bekor qilish vakolatini berish orqali ortiqcha xarajatlarning oldi olinishi ta'minlanadi.

Bir turdagi mahsulotlarni sun'iy ravishda bo'lib-bo'lib xarid qilish orqali raqobatli tanlovlardan chetlab o'tishga urinishlarni bartaraf etish uchun elektron do'kon orqali amalga oshiriladigan xaridlarda avtomatik cheklov joriy etilishi zarur.

Davlat xaridlarini tanlov yo'li bilan amalga oshirishda xarid komissiyasining shaffof va xolis faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida, komissiya tarkibiga hududiy Raqobatni rivojlantirish boshqarmasi vakilini majburiy tartibda kiritish mexanizmini qonuniylashtirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Saydulla Rejapov / "G'aznachilikda davlat xaridlarini tashkil etish" / 2023 / Ilmiy amaliy jurnal / Yangi O'zbekiston iqtisodiyoti / <https://scienceweb.uz/publication/25470>
2. Charos Ro'zimurodova, N. Xaydarov / "O'zbekiston Respublikasi davlat xaridlarini amalga oshirishning nazorat tizimi" / O'zbekiston Respublikasi davlat xaridlarini amalga oshirishning nazorat tizimi / <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekiston-respublikasi-davlat-xaridlarini-amalga-oshirishning-nazorat-tizimi>
3. Gulshat Xojabayeva, Karlibayeva / "Byudjet tashkilotlarida davlat xaridlari mexanizmini takomillashtirish" / "Innovations in Science and Technologies" ilmiy-elektron jurnali
4. "O'zbekiston Respublikasining '2025-yil uchun Davlat byudjeti to'g'risida'gi Qonuni" / O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori / Toshkent / 2024 / 455-qaror
5. "O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi qoidalari" / Toshkent 2022 / byudjet nazorati va g'aznachiligi yo'nalishi/ TDIU
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2025) Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida PF-71-son Farmon.
7. Vazirlar Mahkamasi (2025) Davlat xaridlarini amalga oshirishda xarid predmeti narxining eng yuqori chegarasini o'rnatish to'g'risidagi nizom. Toshkent: VMQ.
8. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi (2021) Davlat xaridlari to'g'risida Qonun. <https://lex.uz/acts/5794872>
9. Transparency International (2024) Corruption Perceptions Index 2023. <https://www.transparency.org/en/cpi/2023/index>
10. OECD (2021) Public Procurement Toolbox: Fighting Bid Rigging in Public Procurement. Paris: OECD Publishing.
11. World Bank (2020) Benchmarking Public Procurement 2020. Washington, DC: World Bank.
12. United Nations (2016) UNCITRAL Model Law on Public Procurement. Vienna: United Nations Commission on International Trade Law.
13. UZINFOCOM (2025) Davlat xaridlari axborot portali – xarid.uz haqida ma'lumot. <https://xarid.uz>
14. Anti-Corruption Agency of Uzbekistan (2025) Yillik faoliyat hisobotlari va tahlillar. Toshkent: Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi.
15. European Bank for Reconstruction and Development (2022) Public Procurement Reform in Transition Economies. London: EBRD.
16. Karimov, A. (2023) 'Davlat xaridlarida iqtisodiy manfaatdorlik va narxlarning asoslanganligi', Iqtisodiyot va boshqaruv, 4(2), pp. 45–56.
17. Yuldoshev, B. (2024) 'Elektron xarid tizimida shaffoflik va monitoringning huquqiy asosi', Huquq va Davlat, 3(1), pp. 22–30.
18. Deloitte (2023) Global Procurement Trends 2023 Report. <https://www2.deloitte.com>
19. G'aznachilik boshqarmasi (2024) Davlat xaridlarida moliyaviy nazorat tizimi to'g'risida tavsiyalar. Toshkent: Moliya vazirligi.
20. UNDP Uzbekistan (2022) Strengthening Public Sector Transparency and Accountability. <https://www.uz.undp.org>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100